

INGLIZ TILI BANK-MOLIYA TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI

Xushboqova Xolida Salomat Qizi
Denov Tadbirkorlik Va Pedagogika Instituti
Xorijiy Til Va Adabiyoti Yo'nalishi 2-Kurs Magistranti.

Kirish

Til o'z taraqqiyoti davomida uzoq va murakkab evolyusiyaga jara'eni boshdan kechiradi. Har bir tilning paydo bo'lish va yashash davri, taraqqi'at jara'eni turlichadir. Tilning bugungi holati va istiqboldagi rivoji bevosita uning tarixiga chambarchas bog'liq. Shu bois tilshunoslik fanining tarkibida etimologiya, ya'ni so'zlarning kelib chiqishini o'rganuvchi fan tarmog'i yuzaga kelgan.

Kalit so'z : Bank-moliya terminlari , Etimologiya , Ayrboshlash , depozit , Emissiya , aksiya.

Tilning lug'at tarkibidan joy olgan so'zlar etimologiyasini o'rganish bir qadar murakkab jara'en bo'lib, u til taraqqi'atini xalqlarning turmush tarzi, madaniyati, qo'shnichilik aloqalari bilan chambarchas o'rganishni taqozo etadi. Til – sistema sifatida shakllanish manbalariga ega bo'lish talabiga javob beradi. Shu bilan birga, u ko'plab sistemalarning yig'indisidan tarkib topgan makrosistema hamdir. Demak, makrosistema tarkibidagi sistemalar ham mazkur talabga javob berishi lozimligi tabiiy. O'zbek tili nuqtai nazaridan baholaganda uning tarkibidagi sistemalardan biri bu – bank-moliya terminologiyasidir. Butun–bo'lak munosabati asosida baholaydigan bo'lsak, bank-moliya terminlari ham lug'at tarkibidan joy olgan boshqa leksik birliklar singari o'z etimologiyasiga ega. Albatta, o'zbek tilining tarkibidan mustahkam o'rin egallagan barcha so'zlarning kelib chiqishi va manbalari bir xil emas. Sohaga oid adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida xulosa qilish mumkinki, fikr yuritiladigan bank-moliya terminologiyasi o'zbek tilidagi boshqa terminologik sistemalar birliklari va umumtil leksikasiga nisbatan keyinroq paydo bo'lgan qatlamdir.

Ma'lumki, bank-moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib, kredit va moliya operatsiyalarining asosiy qismini o'zida gavdalantiradi va u kredit muassasalarining eng qadimiy va keng tarqalgan guruhlaridan biri hisoblanadi. Lekin ilmiy adabiyotlarda banklar shakllanishi va rivojlanishining ko'plab tarixiy-iqtisodiy masalalari bo'yicha fikrlarning tarqoqligi mavjud. Masalan, ayrim tadqiqotchilar fikricha, to'lovlar chog'ida vositachilar sifatida banklarga nisbatan ehti'jlar paydo



bo'lgan, ammo bank ishi juda qadimiy davrda yuzaga kelgan ekan . Sh.X.Tashmatov o'zining O'zbekistonda banklar tizimining shakllanishi va rivojlanishi tadqiqiga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida Ye.Starodubsevaning bank faoliyati rivojlanishining asosiy bosqichlari (4 bosqich) ifodalangan jadvalini keltirib o'tadi, olim tomonidan taklif qilingan davrlashtirishga hamfikr bo'ladi va —macaraga bunday endashuv zamonaviy bank tizimi shakllanishidagi uzoq tarixiy jarayonning real kechishini aks ettiradi deb hisoblaydi . Mazkur davrlashtirishga filologik endashuv va milliy tariximiz faktlarini kiritgan holda bankmoliya tizimining rivojlanish bosqichlarini quyidagicha davrlashtirish mumkin:

1. Ilk davr – sarroflik ishi (mil.av. VII–VI asrdan milodiy XII asrgacha bo'lgan juda katta davrni o'z ichiga oladi).
2. Jamoat banklari davri (1156 yildan (Italiyada dastlabki Venetsiya jamoat banking tashkil etilishidan) 1694 yilgacha (Angliya banking ta'sis etilishi) bo'lgan davr).
3. Depozit va kapitalistik banklar davri (1694 yildan XVIII asr oxirigacha bo'lgan davr).
4. Emissiya va aksiyadorlik banklari davri (XIX asr boshidan boshlab hozirgi vaqtgacha bo'lgan davrni qamrab oladi).

XIX asr boshidan bank faoliyati rivojlanishining eng xususiyatli jihatlaridan biri shunda ediki, bu davrga kelib emissiya banklari tashkil topdi va ularning asosiy funksiyasi banknotalar chiqarish va ularni muomalaga kiritishdan iborat edi. Keyinchalik banknotlar emissiyasi funksiyasi monopol tarzda bajaruvchi markaziy banklar zimmasiga yuklandi va ular iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda keng tarqaldi.

Mazkur davrlashtirishni jahon moliya-bank tizimidagi banklarning rivojlanish va taraqqiy etish bosqichlari deb atash mumkin. Biroq, qayd qilib o'tish joizki, bizning hududimizda garchi moliyaviy munosabatlar Yevropadagidan qadimroq zamonlarda vujudga kelgan bo'lsa ham, muayyan asrlar silsilasida yurtdagi siyosiy vaziyat taqozosi bilan bir qadar oqsashlar kuzatilgan. Mutaxassislarining qayd qilishicha, bank faoliyati rivojlanishining faol jaraenlari ma'lum bir davrgacha musulmon mamlakatlari uchun xos bo'lmadi.

Bank-moliya terminologiyasi mustahkam milliy-lisoniy ildizlariga ega va ayni vaqtda dunyo hamjamiyati ta'sirida xorijiy tillardan so'z o'zlashtirish hisobiga taraqqiy etaetgan sistemadir. Mazkur sistema birliklarining etimologiyasini o'rganish uning boshqa, o'ziga xos yashirin qirralarini ochib berishga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тошматов Ш.Х. Ўзбекистонда банк тизимининг шаклланиш ва ривожланиш тарихи: иқтисод.фан.док... дисс. – Тошкент, 2006. -288 б. – Б.6-7.
2. Лаврушин О.И. и др. Банковское дело: Учебник. – Москва: КНОРУС, 2005. – С.14-15.//Тошматов Ш.Х. Ўзбекистонда банк тизимининг шаклланиш ва ривожланиш тарихи: иқтисод.фан.док...дисс. – Тошкент, 2006. – Б.15.
3. Ўзбекистон Республикаси банк тизими./Ф.М.Муллажонов таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б.6.
4. Кленгель-Бандт Э. Путешествие в Древний Вавилон. – Москва: Наука, 1979. – С.107.

